



NETHERLANDS

## DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE

International scientific-online conference



NETHERLANDS

# HUQUQIY TADQIQOT OLIB BORISHDA TURLI XIL YONDASHUVLAR VA METODLAR

**Jumabayeva Miyrban Mayrambaevna**

Qoraqalpoq davlat universiteti

Mamlakat boshqaruv huquqi yo'nalishi

1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5889184>

**Annotatsiya:** Respublikamizda ilmiy faoliyat sohasini, uning bugungi holati va istiqbolini yanada rivojlantirish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada huquqiy tadqiqot tushunchasi, huquqiy sohada ilmiy tadqiqot olib borish tartibi, huquqni tadqiq qilishning mahsus metodlari, yo'nalishlari, huquqiy tadqiqotni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

**Key words:** Huquqiy tadqiqot, Ilmiy faoliyat, tadqiqot turlari, tadqiqot metodlari.

**Annotation:** Further development of scientific activity in our country is one of the main directions of state policy. This article describes the concept of legal research, the order of scientific research in the legal field, methods, directions, issues of legal research.

**Key words:** legal research, scientific activity, type of research, methods of research.

Huquqiy tadqiqot – huquqning ma'lum bir sohasi haqida aniq va to'liq bilimga ega bo'lish maqsadida tizimli ravishda amalga oshiriladigan tadqiqotning bir turidir.

Huquqiy tadqiqotlarning bir necha turlari mavjud. Har bir tadqiqot turi o'zining maqsadi va vazifalari bilan farqlanadi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotning turi va tadqiq qilinayotgan sohaga qarab tadqiqot ishida qo'llaniladigan metodlar ham farqlanadi. Aytib o'tish kerakki, ilm bilan shug'ullanuvchi olim biror bir huquqiy tadqiqotni amalga oshirayotganida quyidagi yo'nalishlardan birini tanlaydilar:

1. Ma'lum bir huquq sohasini yoki huquqiy doktrinani vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritib berish maqsadida tadqiqot olib boradi.
2. Huquqiy tadqiqotlar, prinsiplar yoki konsepsiyalarni tahlil qilish orqali ularning amaldagi qonun hujjatlaridagi ifodasini o'rganishga qaratilgan tadqiqot olib boradi.
3. Qonun hujjatlariga oxirgi kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilish orqali, ularning ilgarigi qonun hujjatlaridan farqini hamda qaysi muammoni



NETHERLANDS

## DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE

International scientific-online conference



NETHERLANDS

yechimini topishga qaratilganligini va kelgusida qanday qo'llanilishi mumkin ekanligini yoritish maqsadida ilmiy ish yozadi.

4. "Men nimaga ishonaman" shiori ostida qaysi huquqiy hujjat yoki huquqiy soha yetarli darajada ishlamayotganligi, qaysi qonun hujjati amaldagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga sololmayatganligi haqidagi fikrlarini tanqidiy bayon etadi.

5. Huquq va dunyoning o'zaro bog'liqlilagini ilmiy-ijtimoiy jihatdan yoritib beradi. Yuqoridagi tadqiqot olib borishning maqsadlaridan kelib chiqib huquqiy tadqiqotlarni ma'lum bir turlarga ajratish mumkin. Bunda asosiy e'tibor zamonaviy huquqiy tadqiqot olib borish turlariga qaratiladi.

Huquqni tadqiq qilishning mohiyati uning turlari bilan emas balki unda qo'llanilgan metodlar bilan ajralib turadi. Aynan tadqiqotda qanday metodlardan foydalanganligiga qarab uni qanday turdag'i tadqiqot ekanligi aniqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqni tadqiq qilishning quyidagi turlari ham ajratib ko'rsatilgan:

- Deskriptiv(ta'riflovchi)
- Analitik
- Fundamental
- Amaliy
- Miqdoriy(quantitative)
- Sifatli(qualitative)
- Konseptual
- Empirik.



Mazkur tadqiqot turlarini bunday klassifikatsiya qilinishiga sabab, ularning har birida qo'llaniladigan huquqiy tadqiqot olib borishning turli usullari, vositalari va manbalari o'zaro farqlanadi. Tadqiqotchi qaysi huquq sohasida (fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, protsessual huquq sohalari, mehnat huquqi va b.) tadqiqot olib borishi kerak ekanligini aniqlab olganidan keyin shu soha doirasida mavzu tanlaydi. Mavzu tadqiqotning ko'lamidan kelib chiqqan holda dolzarb bo'lishi lozim. Shu bilan birga tanlangan mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'playotganda ham tadqiqotchi qanday tadqiqot olib borishni ko'zlayotganini oldindan bilishi talab etiladi. Bunda esa tadqiqotchi mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgan reja tuzishi va ushbu reja assosida tadqiqot ishini bosqichma-bosqich olib borishi talab etiladi. Bir tadqiqotda bir necha tadqiqot turidan ham foydalanish mumkin. Chunki huquqiy tadqiqotlar ham nazariyani ham amaliyotni o'rganishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Huquqiy tadqiqotlar faqat bir sohada (fuqarolik huquqi) yoki sohalararo (huquq va tibbiyat; huquq va qurilish; huquq va iqtisod) olib borilishi ham mumkin.



NETHERLANDS

## DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE

International scientific-online conference



NETHERLANDS

### Huquqni tadqiq qilishning maxsus metodlari:

Aniq-sotsiologik metod. Huquqiy tadqiqotni amalga oshirishda aniq soiologik guruhlar va jamiyatning ma'lum bir qatlaming ijtimoiy hayoti o'rganiladi. Mazkur metod orqali amalga oshirilayotgan tadqiqotda jamiyat manfaatlariga putur yetkazilmasligiga erishiladi.

Tizimli-funksional metod. Tadqiqot o'zining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli amalga oshiriladi. Bunda tadqiqot bir tizim deb olinib uning elementlari funksiyalariga qarab tadqiq qilinadi.

Statistik metod. Tadqiqotda statistik ma'lumotlarga tayaniladi va ilgari surilgan fikrlar hamda gipotezalar statistik ma'lumotlar asosida isbotlanadi. Bu metod orqali tadqiqotchining

fikrlarini tasdiqlovchi faktlardan foydalaniladi.

Formal-mantiqiy metod. Normativ-dogmatik metod deb ham yuritiladi ("dogma" so'zi lotinchadan olingan bo'lib "norma", "qoida" degan ma'nolarni anglatadi). Mazkur metod orqali hodisalar ichidan aniq bir hodisalar ajratib olinib alohida o'rganiladi. Mazkur metoddan huquq manbalari tizimini o'rganishda foydalaniladi.

Psixologik metod. Ushbu metod huquq psixologiyasini tahlil qilish bilan bog'liq bo'lib, huquqning tabiatni, yuzaga kelish shartlari va jamiyatga ta'siri yoritib beriladi hamda tahlil qilinadi.

Bashorat qilish metodi. Mazkur metod orqali tahlil qilinayotgan huquqiy hodisani o'rganish jarayonida muammolar aniqlanadi va ularga yechim berish masalalari o'rganilib, kelajakda uning qanday o'zgarishlarga ega bo'lishi mumkinligi oldindan taxmin qilinadi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi. Mazkur metod komparativistika deb ham ataladi. Ushbu metod orqali normativ-huquqiy hujjatlar, qoidalar, turli kontseptsiyalar bir davlatniki bilan ikkinchi davlatniki yoki bir davlatning o'zida ma'lum vaqt oraliqlarida mavjud bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qiyoslanadi. Rus olimi G.F.Shershenovich mazkur metodni tanqid metodi (metod kritiki), "huquq siyosati"ni tadqiq qilish metodi deb izohlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2014. – 512 b.
2. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. -T.: Iqtisod-moliya, 2007.
3. Research Methods for Law. Edited by Mike McConville, Wing Hong (Eric) Chui. Edition:2. 2017. – 257 p.